

MAQOLNING ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI

Otabayeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Karimboyeva Maftunabonu

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqolning adabiyotdagi o'rne va uning rivojlanishi tahlil qilindi. Maqolning tarixiy jihatlari, xalq o'g'zaki adabiyotida va zamonaviy adabiyotda qanday shakllanishi va o'zgarishi kórib chiqildi. Maqolning xususiyatlari yoritildi. Shuningdek maqollarning xalqlardagi madaniy qadriyatlari, yozuvchi va shoirlarning asarlarida maqollarni ishlatish usullari haqida sòz bordi.

Kalit sòzlar: Maqol, ma'no, xalq o'g'zaki ijodi, xususiyat, simvolizm, ritmik tuzulish

Kirish: Maqol xalq o'g'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bòlib, qisqa óqishga oson va hayotiy tajriba yoki donolikni ifodalovchi iboradir. Maqollar kòpincha órganilgan saboqlarni, axloqiy qadriyatlarni yoki turmushdagi oddiy haqiqatlarni ifodalaydi. U oddiy, lekin ma'nodor, esda qolarli bòlib, kòpincha hikmatli yoki órgatishga yònaltirilgan bòladi. Maqol orqali kòp narsalarni masalan odob-axloq va muomalla qoidalarini órganish mumkin. Xalqimizdan azal-azaldan kelayotirgan maqollarimiz bor. Shulardan misol keltirsak:

“Asirlikda qand-u asal yegandan erkinlikda parcha qòygan non yaxshi”

Bu maqol asirlik, tutqinlik azobini tortganlar tilidan aytiladi.

Bu maqolni turli xil variantlari ham bor:

“Bandda bòldim—ganda bòldim”

“Oyo'g'imda bo'g, yuragimda dog”

” Xalq tilida shunday variantlarda ham aytilgan.

“Dushmaning bòlsa ham òzidan tinchsin” Bu maqolning zamirida ikki ma'no yotadi:

1. Olamda hech kimning boshiga kulfat g'am-u sitam tushmasin, har bir inson tinch va osoyishta yashasin degan ezgu niyat.

2. Dushman òzidan tinch bòlsa senga kòz olaytirmaydi. Shu maqolning mazmunini aytar ekanmiz Muqimiy ham bu haqida Dòstlar kòrsatmasin, hargiz judoli'g dardini, Dushmaning ham bòlsa, òz g'amxoridin ayrilmasun deb òtgan. Maqollarni órganish tòplash XI asrda Mahmud Koshgariy tomonidan boshlab berilgan. Uning “Devon-u lu'gotit turk asarida 268 ta maqol keltirilib òtilgan.

Namunalar qatorida uchratadigan maqollarimiz: To'g toqqa qovushmas kishi kishiga qovushar” ya'ni to'g bilan to'g uchrashmas odam bilan odam uchrashar. Maqolni

òrganar ekanmiz, ularda kòproq moddiylikdan kòra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekanligini anglashimiz lozim. Maqollarni òrganishdagi ahamiyati Maqollar xalqlarning tarixiy, madaniy va ahloqiy me'yorlarini òzida mujassamlashtiradi. Ular avloddan-avlodga òtib, insoniyat tajribasini va donoligini saqlab keladi. Maqollarni òrganish va ulardan foydalanish, insonni nafaqat til boyligini oshirishga, balki turmushdagi tògri qarorlar qabul qilishga ham yordam beradi.

“Sabr òrgangan yutadi”

“Mehnatning mevasi shirin bòladi”

“ Dòstni sinash uchun qòlingdan kelganini qil”

Ushbu misollar maqollarning turli vaziyatlardagi òrgatish va tarbiya qilish rolini yaqqol kòrsatadi

Maqollar har bir insonning hayotidagi oddiy, ammo muhim saboqlarni anglatadi. Maqollarning bir qancha xususiyatlarga ham egadir. Qisqalik xususiyati maqollar odatda, qisqa aniq va òqishga oson bòladi. Ularning mazmuni chuqur, lekin shakli soddadir.

Hayotiy hikmat: Maqollar kòpincha hayotiy tajribalaridan olingan saboqlarga asoslanadi.

Simvolizm xususiyati maqollarda kòpincha ramziy ifodalar uchraydi. Masalan hayot va ólim yaxshi yomon, dòstlik va dushmanlik kabi qarama-qarshi tushunchalar òrtasidagi munosabat aks etadi. Ritmik tuzulish xususiyati maqollar kòpincha musiqiy ritmga ega, bu esa ularni yodda saqlashni yengillashtiradi. Maqollar xalq oğzaki ijodining ajralmas qismi sifatida, insoniyatning aqlli va axloqiy qadriyatlarini òzida mujassamlashtiradi. Shuningdek maqollarni xalqning zamonaviy turmushiga moslashtirish, ularni yangi avlodga òrgatish va ulardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun maqollarni saqlab qolish ularni òrganish va tògri qòllash milliy madaniyatni rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V.A. Òzbek adabiyoti tarixi. K-
2. T 1967 2. Abduraxmonov M. Òzbekcha-ruscha aforizmlar luğati.- T.1976
3. Abu Ali Ibn Sino tib qonunlari, T .1954
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli luğati: tòrt jildlik. / E.I Fozilov tahriri ostida. T. 1983; 1985
5. Axmedov B.A Tarixdan qisqacha izohli lug‘at T.1977